



Ruxsora Abduqodirova

O'zDJTU Ingliz tili 2-fakulteti 2533-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Nazokat Jiyanova

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n. .

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida til birligi hisoblangan sinonim so'zlarning lingvopoetik va uslubiy vazifalari misollar asosida tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligida sinonimlar haqidagi olimlarning ilmiy-nazariy fikrlariga ham tayanilgan va munosabat bildirilgan. Shuningdek, shoirning o'zaro ma'noviy yaqin leksik sinonimlar orqali Vatan obrazining turli sinonimlaridan, lirik qahramon ruhiyatiga yaqin variantlaridan o'rinli va unumli foydalanganligi izohlangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonimlar she'riyatda oddiy takroriniyuzaga keltirmasdan, balki emotsional ekspressivlikni oshirishga, ma'no nozikliklarini to'g'ri ifodalashga va poetik tasvirni boyitishga xizmat qilgan.

Tayanch so'zlar: uslubiy sinonimlar, lingvopoetika, badiiy matn, leksik birlik, semantik maydon, emotsional-ekspressivlik, Vatan obrazi, poetik tasvir, ma'no nozikligi.

Abstract: This article analyzes the linguopoetic and stylistic functions of synonyms, which are considered linguistic units in the poetry of Abdulla Oripov, based on examples. The scientific and theoretical views of scholars about synonyms in Uzbek linguistics are also relied on and commented on. It is also explained that the poet appropriately and productively used various synonyms of the image of the Motherland, variants close to the psyche of the lyrical hero, through mutually semantically close lexical synonyms. The analysis shows that synonyms did not create simple repetition in poetry, but served to increase emotional expressiveness, correctly express the subtleties of meaning, and enrich the poetic image.

Keywords: stylistic synonyms, linguopoetics, artistic text, lexical unit, semantic field, emotional-expressiveness, image of the Motherland, poetic image, subtlety of meaning.

Аннотация: В данной статье на примерах анализируются лингвопоэтические и стилистические функции синонимов, рассматриваемых как языковые единицы в поэзии Абдуллы Орипова. Также приводятся и комментируются научные и теоретические взгляды ученых на синонимы в узбекской лингвистике. Объясняется, что поэт уместно и продуктивно использовал различные синонимы образа Родины, варианты, близкие к психике лирического героя, посредством взаимно семантически близких лексических синонимов. Анализ показывает, что синонимы не создавали простого повторения в поэзии, а служили для усиления эмоциональной выразительности, корректного выражения тонкостей смысла и обогащения поэтического образа.



Ключевые слова: *стилистические синонимы, лингвопоэтика, художественный текст, лексическая единица, семантическое поле, эмоционально-выразительность, образ Родины, поэтический образ, тонкость смысла.*

KIRISH

Bizga ma'lumki, shariatda sinonimlar shunchaki ma'nodosh so'zlar yig'indisi emas, balki shoirga bir xil ma'noni turli jilolarda taqdim etish imkonini beruvchi vositadir. Bu esa, o'z navbatida, tilning boyligini ko'rsatish bilan birga she'riy matnning rang-barangligini, ta'sir kuchini ham ta'minlaydi. Shuning uchun ham sinonim so'zlarsiz badiiy matnni tasavvur etib bo'lmaydi. Sinonim so'zlardan o'rinli foydalanish esa lirik qahramon maqsadini, fikrini kitobxonga aniq yetkazish imkoniyatini beradi. Ularning badiiy matn tarkibidagi uslubiy vazifasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi o'zbek adabiy tili bo'yicha nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, internet manbalarda sinonim so'zi yunoncha bo'lib "bir xil nom" degan ma'noni ifodalashi aytilgan. [5.Internet manba].

Ilmiy manbalardan ma'lumki, tilning leksik birligi hisoblangan sinonimlar olimlar tomonidan tahlil etilgan va ilmiy-nazariy fikrlar berilgan. Badiiy matn uchun tilning asosiy birligi ekanligi ta'kidlangan. O'zbek tilshunoslaridan H.Jamolxonov, M.Mirtojiyev, Sh.Raxmatullayev, E.Qilichev, R.Sayfullayeva, U.Tursunov, A.Hojiyev, A.Doniyorovlar ham sinonim so'zlar haqidagi ilmiy-nazariy fikrlarini berishgan.[3.1999,69-bet]. Olimlar sinonimlarni ma'lum turlar asosida tahlil etishgan.

Shuning uchun ham yozuvchi va shoirlar leksik birlik sifatida sinonim so'zlardan mosini qo'llash imkoniyatiga egadirlar. Biz ushbu maqolamizda Abdulla Oripov she'riyatida qo'llanilgan sinonim so'zlarning uslubiy o'rni haqida fikr yuritamiz. Leksik birlik sifatida qo'llaniladigan sinonim so'zlar shoirga qofiya uchun eng mos til birligi hisoblanadi.

Bundan tashqari, shoir tomonidan tanlangan har bir so'z she'rning umumiy mazmunini, uslubiy ruhini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shoir she'r ruhiyatidan kelib chiqqan holda kitobiy yoki xalqona (nutq birligiga aylanib qolgan) sinonimlardan uslub nuqtayi nazardan foydalanadi. Bunday foydalanish har bir shoirning o'ziga xos uslubi sanaladi. Shuning uchun ham shoirlarning she'rlarini o'qiganimizda bir xillikni kuzatmaymiz. Har birining o'ziga xos aytmoqchi bo'lgan fikri, olami mavjud ekanligini sezamiz. Ular sinonim so'zlar orqali she'rning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi.

METODOLOGIYASI VA TAHLILLAR

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Oripov ijodida sinonimlardan shunchaki lug'aviy boylik sifatida emas, balki she'rning g'oyaviy mazmunini kuchaytiruvchi badiiy bo'yoq, ta'sirchan birlik va mos leksema sifatida o'rinli va unumli foydalangan. Shoirning "O'zbekiston" she'rida shunday satrlar mavjud:

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.



Shoirilar bor, o'z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Shoir bir she'r tarkibida sinonimlikni tashkil etuvchi – yurtim, olam, diyor, o'lka, Vatan so'zlaridan o'rinli foydalangan. Bu so'zlar she'rda ma'noviy yaqinlik asosida sinonimlik qatorni hosil qilib, Vatan tushunchasini turli uslubiy ranglarda tasvirlashga xizmat qilgan. Berilgan sinonim so'zlarning har biri bitta umumiy tushuncha – Vatan g'oyasini ifodalasada uslubiy vazifa bajarib kelgan. Shuningdek, she'rning ta'sirchanligini oshirgan holda turli emotsional va uslubiy ma'noni bergan. Natijada, she'rda takroriy ma'no yuzaga kelmagan, aksincha, sinonimlar yordamida mazmuni boyigan, obrazlilik oshgan va ta'sirchan tus bergan.

R.Sayfullayeva va boshqalar tomonidan nashr etilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida sinonim so'zlarning atash va vazifa semasi bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanishini ta'kidlashgan [1.2020,110-bet]. Demak, she'rda keltirilgan yurtim, olam, diyor, o'lka, Vatan sinonimlar ta'sir etishiga ko'ra, qo'llanish davriga ko'ra va qo'llanish doirasiga ko'ra farqlanadi. Bunday farqni bilish she'r mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Shoir yana she'rini davom ettirgan holda yozadi:

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ildi ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U, Ulug'bekning ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sinonimlar – so'z, kalom, gap. “So'z” – umumiy va keng ma'nodagi nutq birligi bo'lsa, “kalom” – ma'no jihatdan teran, hikmatli, baland ohangli ifoda. Shoir ularni ketma-ket qo'llash orqali fikrni bosqichma-bosqich yuksaliradi. Bu jarayonda avval ajdodlar haqida umumiy eslash (so'z), so'ng esa o'sha merosning markaziy, muhim haqiqatiga urg'u berish (kalom). Umumiy yakuniy bosqich (gap). Bu birliklar she'rda uslubiy sinonimlar sifatida qo'llanib, tarixiy xotira va hikmatli meros g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi. Shu o'rinda “O'zbek tilining izohli lug'ati”da berilgan izohni keltiramiz. Kalom arabcha so'z bo'lib – so'z, nutq, gap-so'z; so'zlash, gapirish. [2. Moskva, 1980, I tom, 361-bet]. So'z –tovush yoki



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tovushlardan iborat, biror ma'no bildiruvchi nutq birligi, gap bo'lagi. [2. Moskva, 1981, II tom, 96-bet]. Gap – so'zlar orqali izhor etilgan yoki etiladigan fikr" so'z; nutq. [2. Moskva, 1980, I tom, 185-bet].

Shoirning she'rlarini tahlil etishda davom etamiz:

Meni ko'rar endigi bu go'zal olam,
Sirli u damlarning mavhum soyasi.
Shu sabab qalbimni o'rtaydi alam,
Shul sabab g'amimning yo'q nihoyasi.

She'rda sinonimlikni tashkil etgan g'am va alam so'zlari qo'llangan. Sinonimik yaqinlikdagi bu ikki so'z she'rning emotsional qatlamini boyitgan, shoirning ichki iztirobini yanada chuqur va ta'sirchan tasvirlashga xizmat qilgan. "Alam" – iztirobning jismoniy azob, og'riqlik nuqtasi, kuydiruvchi, jihatini ifodalasa, "g'am" esa – ruhiy azob, qayg'u, g'ussa; alamning davomiy va umumiy ko'rinishini bildiruvchi so'z. Ularning yonma-yon qo'llanishi takror emas, balki ma'noni kuchaytirish va tuyg'u holatini ochish vazifasini bajaradi.

La'natlab bo'lsa ham, qarg'ab bo'lsa ham
Har kun tilovatda aytilar nomi.
Uning bosh suqmagan joyi kamdan-kam,
Ichilgan har qadah uning ham jomi...

Bu she'rda qo'llanilgan la'natlab va qarg'ab so'zlari o'zaro sinonim so'zlar hisoblanadi. Bizga ma'lumki, sinonimlikni tashkil etuvchi so'zlar ijobiy va salbiy baho munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Har ikkala leksema ham salbiy munosabatni, norozilik va nafratni ifodalash uchun qo'llanilgan. "La'natlamoq" so'zi diniy – ma'naviy tusga ega bo'lib, kimnidir Allohning rahmatidan uzoq bo'lishini tilash, unga nisbatan qat'iy hukm chiqarish, keskinlik, qat'iy rad etish ma'nosida, axloqiy hukm ohangini ifodalashda qo'llaniladi. "Qarg'amoq" esa xalqona va emotsional jihatdan kuchli nutqiy birlik bo'lib, kimnidir yomonlikka duchor bo'lishini tilash, unga balo so'rash ma'nosini ifodalashda qo'llaniladi. Bu so'zda hissiy portlash, alam va nafratning bevosita ifodasi mavjud. Ularning yonma-yon ishlatilishi oddiy takror emas, balki nafrat darajasini kuchaytirish va obrazlilikning murakkab ijtimoiy bahosini ochib berish maqsadida qo'llanilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, she'rdagi sinonim birliklar, shoir ruhiyatini, u bilan bog'liq holatlarni ifodalashda uslubiy figura sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, shoirning Vatanga, xalqqa, onaga, jamiyatga bo'lgan ruhiy kechinmalarini ifodalab bergan. Shoir nazdidagi hayotiy tasvirlarni turli qirralarda ifodalashga xizmat qilgan. Ular emotsional kuchni oshiradi, fikriy obrazlilikni yanada teranlashtiradi hamda she'riy matnning lingvopoetik qurilishida muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, sinonimik qatlam poetik tasvirning ko'p qirrali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham she'riyatda qo'llanilgan sinonimlarning ma'no nozikliklarini bilgan holda o'qishga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rganishimiz va shoir ruhiyatini teran anglashimiz zarur. Bu esa she‘riyatga bo‘lgan ijobiy munosabatimizni yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva va boshqalar. Ho‘zirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2020.
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, –Moskva, 1980, I, II tom.
3. E.Qilichev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro universiteti nashriyoti, 1999.
4. A.Oripov. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2019.
5. Internet manbalar.